



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 24-aprel

VI-67-48-5-74-K/24

Nurota tumani

2024-yil birinchi mavsum “Ochiq budget” axborot portalida ovoz berish jarayonida g‘olib bo‘lgan tashabbuslarni tasdiqlash va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 30-yanvarda “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” KQ-666-IV-sonli qarori qabul qilingan. Oliy Majlisi Senatining ushbu qarorga ko‘ra “Mening yo‘lim” loyihasi 2024-yildan boshlab “Tashabbusli byudjet jarayoni” ning 1-mavsumi doirasida o‘tkazilishi belgilandi. “Ochiq byudjet“ axborot portalida fuqarolarni identifikatsiya qilish orqali ”Bir fuqaro bir ovoz" tamoyili ishga tushirildi.

Tashabbusli budget jarayonini moliyalashtirishga “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ning yil boshiga qoldiq mablag‘lari 1908,3 million so‘mni tashkil etib, tuman mahalliy byudjeti umumiy parametrlarining 5 foizi hisobidan 6886,7 million so‘m, tuman mahalliy byudjetining yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari 30 foizi hisobidan 479,1 million so‘m, viloyat mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalari hisobidan 400,0 million so‘m hamda “Mening yo‘lim” loyihasi Tashabbusli byudjet jarayoning 1-mavsumi doirasida bajarilishi sababli 4000,0 million so‘m, jami 13674,1 million so‘m mablag‘lar yo‘naltiriladi.

“Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablariga muvofiq “Fuqarolar tashabbusi jarayoni”da g‘olib takliflarni aniqlash 3 ta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich – (qabul qilish bosqichi) joriy yilning 1-fevraldan 22-fevralgacha o‘tkazilib, bunda fuqarolar tomonidan “Ochiq byudjet” axborot portaliga orqali mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida jami 262 ta takliflar bildirildi.

Ikkinchi bosqich – (ko‘rib chiqish bosqichi) 22-fevraldan 16-martgacha davom etib, bunda “Ochiq byudjet” axborot portaliga kiritilgan takliflar sohalarga ajratilib, tadbirlar summalariga aniqlik kiritildi va Ishchi komissiyaga taqdim etildi. Fuqarolarimiz tomonidan bildirilgan 262 ta takliflar Ishchi komissiya tomonidan belgilangan tartibda o‘rganilib, 253 ta taklif ovoz berish bosqichiga o‘tkazildi va 9 ta takliflar, shundan:

- bir birini takrorlovchi (dublikat loyiha) 5 ta , idoraviy-ma‘muriy xarajatlarga qaratilgan 2 ta loyiha va amalga oshirish umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4000 baravaridan ziyod bo‘lgan 2 ta loyihalar Ishchi komissiya xulosasiga ko‘ra rad etildi.

Uchinchi bosqich (ovoz berish bosqichi) 16-martdan 4-aprelga qadar davom etdi. Ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan 253 ta takliflar uchun fuqarolar tomonidan "Ochiq byudjet" axborot portaliga jami 53129 ta ovozlar kelib tushdi.

Joriy yilning fevral-aprel oylarida "Ochiq byudjet" axborot portalida takliflarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda ovoz berish jarayonlari yakunlangandan so'ng fuqarolar tomonidan bildirilgan quyidagi takliflar tizim tomonidan avtomatlashtirilgan tarzda "Ochiq byudjet" axborot portalida g'olib deb topildi:

Nurota tuman Jarma MFY Jarma qishlogidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali stadion qurish taklifi (ID raqami 032298875006) (jami 3908 ta ovoz) xarajatlari uchun 1200,0 (bir milliard ikki yuz million) million so'm;

Nurota "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga 130 KVt lik quyosh panellari o'rnatish loyihasi (ID raqami 032313488006) (jami 3817 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Nurota tuman Nurobod mahalla fuqarolar yig'ini katta hududga ega bo'lib, mavjud ko'chalarga video kuzatuv kameralari o'rnatish orqali markaziy videokuzatuv tizimini joriy etish taklifi (ID raqami 032297811006) (jami 3806 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Nurota tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabini jihozlash bo'yicha taklif (ID raqami 032324551006) (jami 3783 ta ovoz) xarajatlari uchun 915,4 (to'qiz yuz o'n besh million to'rt yuz ming so'm) million so'm;

Nurota tumanidagi 40-umumiy o'rta ta'lim maktabga bush yer uchastkasida ochik sun'iy futbol maydoni qurish, maktabning tashki fasad qismi ta'mirlash va ko'mirxona qurish taklifi (ID raqami 032322273006) (jami 3774 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Oqtepa qishlog'ida joylashgan 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun usti yopiq sun'iy qoplamali minifutbol stadioni va yengil konstruksiyadan o'quv binosi va metodik xonalar qurish taklifi (ID raqami 032325349006) (jami 3764 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Nurota tumanidagi 47-umumiy o'rta ta'lim maktabning hududidan 12x24 metr o'lchamdagi yengil konstruksiyali zamonaviy barcha qulayliklarga ega, sport anjomlari bilan jihozlangan usti yopiq sport zal qurish taklifi (ID raqami 032328589006) (jami 3758 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Nurota tumani Yangiturmush MFY aholi va yoshlari uchun bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, futbol musobaqalari tashkil etish maqsadida 20- umumiy o'rta ta'lim maktabi hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali mini stadion qurib berish taklifi (ID raqami 032299030006) (jami 3756 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

Nurota tumanidagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabini jihozlash bo'yicha taklifi (ID raqami 032329822006) (jami 3755 ta ovoz) xarajatlari uchun 874,1 (sakkiz yuz yetmish to'rt million bir yuz ming so'm) million so'm;

Sentob MFY Sob qishlog'ida Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi hududida 45x25 metr o'lchamli usti yopiq suniy qoplamali Mini Futbol stadionini yoritish uskunalari bilan barpo yetish taklifi (ID raqami 032299552006) (jami 3740 ta ovoz) xarajatlari uchun 1000,0 (bir milliard) million so'm;

Nurota tuman 10-umumiy o'rta ta'lim maktabiga yengil konstruksiyali sport zal binosini qurish (sendvich panelli) taklifi (ID raqami 032312759006) (jami 3717 ta ovoz) xarajatlari uchun 1360,0 (bir milliard uch yuz oltmish million) million so'm;

“Ochiq byudjet axborot” portalida jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra eng ko'p ovoz to'plagan takliflarni saralab olish hamda jamg'arma mablag'larini moliyalashtirish va xulosalar berish bo'yicha Ishchi komissiya yig'ilish bayoniga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida”gi nizomning 45, 46, 47-bandlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24–moddalariga asoslanib, Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining “openbudget” rasmiy veb saytidan olingan ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra:

Nurota tuman Jarma MFY Jarma qishlogidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali stadion qurish taklifi (ID raqami 032298875006);

Nurota “Muruvvat” nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga 130 KVt lik quyosh panellari o'rnatish loyihasi (ID raqami 032313488006);

Nurota tuman Nurobod mahalla fuqarolar yig'ini katta hududga ega bo'lib, mavjud ko'chalarga video kuzatuv kameralari o'rnatish orqali markaziy videokuzatuv tizimini joriy etish taklifi (ID raqami 032297811006);

Nurota tumanidagi 40-umumiy o'rta ta'lim maktabga bush yer uchastkasida ochik sun'iy futbol maydoni qurish, maktabning tashki fasad qismi ta'mirlash va ko'mirxona qurish taklifi (ID raqami 032322273006);

Oqtepa qishlog'ida joylashgan 25--umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun usti yopiq sun'iy qoplamali minifutbol stadioni va yengil konstruksiyadan o'quv binosi va metodik xonalar qurish taklifi (ID raqami 032325349006);

Nurota tumanidagi 47-umumiy o'rta ta'lim maktabning hududidan 12x24 metr o'lchamdagi yengil konstruksiyali zamonaviy barcha qulayliklarga ega,sport anjomlari bilan jihozlangan usti yopiq sport zal qurish taklifi (ID raqami 032328589006);

Nurota tumani Yangiturmush MFY aholi va yoshlari uchun bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, futbol musobaqalari tashkil etish maqsadida 20- umumiy o'rta ta'lim maktabi hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali mini stadion qurib berish taklifi (ID raqami 032299030006);

Nurota tumanidagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabini jihozlash bo'yicha taklifi (ID raqami 032329822006);

Sentob MFY Sob qishlog'ida Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi hududida 45x25 vetr o'lchamli usti yopiq suniy qoplamali Mini Futbol stadioni yoritish uskunalari bilan barpo yetish taklifi (ID raqami 032299552006);

Nurota tuman 10-umumiy o'rta ta'lim maktabiga yengil konstruksiyali sport zal binosini qurish (sendvich panelli) taklifi (ID raqami 032312759006) g'olib deb topilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2024-yilning birinchi mavsumida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxat va xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reyestrlari 1, 2, 3, 4- ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (moderator) ga:

“Ochiq byudjet” axborot portaliga kelib tushgan, eng ko'p ovoz to'plagan hamda 3-bosqichda g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish uchun buyurtmachi tashkilotlarga har bir loyiha uchun alohida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida shaxsiy g'azna hisob varag'i ochilishini tashkillashtirish hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi” (keyingi o'rinlarda “Jamg'arma”) da mavjud mablag'lardan kelib chiqib moliyalashtirishni amalga oshirish;

g'olib bo'lgan takliflarni to'liq moliyalashtirilib bo'lingandan so'ng mablag' ortgan taqdirda tuman hokimligi qoshida ochilgan shaxsiy g'azna hisob varag'iga qaytarish;

“Tashabbusli byudjet” jarayonining keyingi bosqichlarida fuqarolarni keng jalb qilish maqsadida “Ovoz berish yarmarkalarini” tashkil etish, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish Ishchi komissiyasi (F.Ermakov, O.Oxunjonov S.Haydarov):

Jamg'armadan yo'naltirilgan mablag'lar bo'yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risida ma'lumotni;

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar aks ettirilgan video-rolik va foto lavhalarini tuman hokimligining rasmiy veb saytida joylashtirib borsin.

5. Ushbu qaror imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Bo'riyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya (F.Ermakov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



FAYZIYEV AZAMAT
ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-67-48-5-74-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Tumanda 2024-yilning birinchi mavsumida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
manzilli ro'yxat**

№	Taklif ID raqami	Loyihalarning mazmuni	to'plangan ovoz soni	amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'm)	Haqiqatda ajratilgan (ming so'm)	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
1	032298875006	Nurota tuman Jarra MFY Jarra qishlogidagi 26-maktab hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali stadion qurish	3908	1 200 000 000	1 200 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
2	32313488006	Nurota "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga 130 KVt lik quyosh panellari o'rnatish loyihasi	3817	1 300 000 000	1 300 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurota "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi
3	032297811006	Nurota tuman Nurobod mahalla fuqarolar yig'ini katta hududga ega bo'lib, mavjud ko'chalarga video kuzatuv kameralari o'rnatish orqali markaziy videokuzatuv tizimini joriy etish loyihasi.	3806	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
4	032324551006	15-maktabga ro'yxatdagi jihozlar va 5 noutbuk, 1 ta temir seyf, 2 ta 45 lik Smart televizor, 3 ta konditsioner, 46 ta pardalar (jalyuzi), yumshoq medellar to'plami, 100 m yo'lak gilamchasi, maktab kirishi joyi va sinflar uchun shishalik targ'ibot stendlari, 1 ta kuler, 6.5x5 o'lchamda gilam olish	3783	915 400 000	915 400 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
5	032322273006	Nurota tuman 40-maktabga Bo'sh yer uchastkasidan ochiq suniy futbol maydoni qurish, maktabning tashki fasad kismi ta'mirlash va ko'mirxona qurish uchun loyixa kiritildi.	3774	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK

6	032325349006	Oqtepa qishlog'ida joylashgan 25-maktab o'quvchilari uchun usti yopiq sun'iy qoplamali minifutbol stadioni va yengil konstruksiyadan o'quv binosi va metodik xonalar qurish loyihasi	3764	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
7	032328589006	47-maktabning hududidan 12x24 o'lchamdagi yengil konstruksiyali zamonaviy barcha qulayliklarga ega,sport anjomlari bilan jihozlangan usti yopiq sport zal qurish .	3758	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
8	032299030006	Nurota tumani Yangiturmush MFY aholi va yoshlari uchun bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, futbol musobaqalari tashkil etish maqsadida 20-maktab hududidagi bo'sh yer uchastkasida usti yopiq sun'iy qoplamali mini stadion qurib berish masalasi	3756	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
9	032329822006	Nurota tumani 20-umumta'lim maktabini jihozlash	3755	874 100 000	874 100 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
10	032299552006	Sentob MFY Sob qishloğida PF-6099-sonli farmon ijrosini taminlash, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun 21-maktab hududida 45x25 òlchamli usti yopiq suniy qoplamali Mini Futbol stadionini yoritish uskunalari bilan barpo etish.	3740	1 000 000 000	1 000 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
11	032312759006	Nurota tuman 10-sonli umumta'lim maktabiga yengil konstruksiyali sport zal binosini kurish (sendvich panelli)	3717	1 360 000 000	1 360 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK
Jami				13 449 500 000	13 449 500 000		

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-67-48-5-74-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Nurota tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra
g'olib bo'lgan ID: 032324551006 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid
qilinadigan tovar (xizmat)lar
REESTRI**

15-maktab

t/r	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
	5-11 sinf til o'rganish xonasi uchun jihozlar			
1	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	2	1 200 000	2 400 000
2	O'qituvchi stoli	1	1 200 000	1 200 000
3	O'qituvchi stuli	1	150 000	150 000
4	O'quvchi stoli №5 (1 dona stol, 1 dona stul)	6	1 000 000	6 000 000
5	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 1 dona stul)	6	1 000 000	6 000 000
6	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	1	20 000 000	20 000 000
	5-11 sinf xonalari			
7	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	10	1 200 000	12 000 000
8	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	10	1 200 000	12 000 000
9	Kiyim javoni	10	1 000 000	10 000 000
10	O'qituvchi stoli	10	1 200 000	12 000 000
11	O'qituvchi stuli	10	150 000	1 500 000
12	O'quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul)	44	1 000 000	44 000 000
13	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul)	44	1 000 000	44 000 000
14	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	8	20 000 000	160 000 000
	Boshlang'ich ta'lim xonalari uchun jihozlar (1-4-sinf)			-
15	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	6	1 200 000	7 200 000
16	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	6	1 200 000	7 200 000
17	Kiyim javoni	6	1 000 000	6 000 000
18	O'qituvchi stoli	6	1 200 000	7 200 000
19	O'qituvchi stuli	6	150 000	900 000
20	O'quvchi stoli №3 (1 dona stol, 2 dona stul)	32	1 000 000	32 000 000
21	O'quvchi stoli №4 (1 dona stol, 2 dona stul)	32	1 000 000	32 000 000
22	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	4	20 000 000	80 000 000
	"Informatika va axborot-texnologiyalari" xonasi uchun jihozlar:			-
23	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	1	1 200 000	1 200 000
24	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	1	1 200 000	1 200 000
25	Klaviatura	30	100 000	3 000 000
26	Kompyuter (personalniy)	30	6 000 000	180 000 000
27	Mish kompyuternaya	30	50 000	1 500 000

28	Printer (3v 1)	1	5 000 000	5 000 000
29	Printer rangli	1	6 500 000	6 500 000
30	O'qituvchi stuli	1	150 000	150 000
31	O'qituvchi uchun kompyuter stoli	1	1 300 000	1 300 000
32	O'quvchi uchun kompyuter stoli va stuli (1 dona stol, 1 dona stul)	20	1 100 000	22 000 000
33	Ekran dlya proyektora	1	3 000 000	3 000 000
34	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	1	20 000 000	20 000 000
	Kimyo va biologiya laboratoriya xonasi (STEEM)			
35	O'qituvchi stul	1	150 000	150 000
36	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 4 dona stul)	10	1 100 000	11 000 000
	Kuzatuv kameralari			
37	Kuzatuv kameralari	5	1 660 000	8 300 000
	Metallga va yog'ochga ishlov berish o'quv ustaxonasi uchun jihozlar			
38	Dazmol va dazmollash doskasi	1	1 000 000	1 000 000
39	Javon-stellaj (asbob-uskunalar uchun)	1	1 500 000	1 500 000
40	Tikuv mashinasi (maxsus stoli bilan)	1	7 000 000	7 000 000
41	Tikuv mashinasi overlog (maxsus stoli bilan)	1	6 000 000	6 000 000
42	Tikuv stoli uchun stul	1	150 000	150 000
43	O'qituvchi stoli	1	1 000 000	1 000 000
	Metod xonasi uchun jihozlar			
44	Ish stoli va stuli (O'qituvchi stoli)	2	1 400 000	2 800 000
45	Kitob javoni	2	1 200 000	2 400 000
46	Kreslo (aylanuvchi)	1	1 000 000	1 000 000
47	Majlis stoli	1	1 200 000	1 200 000
	Psixolog xonasi uchun jihozlar			
48	Psixolog stoli	1	1 200 000	1 200 000
49	Stul	1	150 000	150 000
50	Yumshoq kreslo	1	1 500 000	1 500 000
	Rahbar xonasi uchun jihozlar			
51	Ish stoli	1	3 000 000	3 000 000
52	Kabinet to'plami	1	15 000 000	15 000 000
	Sport zal uchun jihozlar			
53	Gimnastik matras (to'shak)	4	350 000	1 400 000
54	Kiyim uchun javon (4 seksiyali)	4	2 000 000	8 000 000
	Tasviriy san'at va rassomchilik xonasi uchun jihozlar			
55	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	1	1 200 000	1 200 000
56	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	1	1 200 000	1 200 000
57	O'qituvchi stoli	1	1 200 000	1 200 000
58	O'qituvchi stuli	1	150 000	150 000
59	O'quvchi stoli (1 dona stol, 1 dona stul)	1	1 000 000	1 000 000
	Tibbiyot xonasi uchun jihozlar			
60	Tibbiyot javoni	1	1 000 000	1 000 000
61	Xolodilnik	1	3 000 000	3 000 000
	O'qituvchilar xonasi uchun jihozlar			-
62	Javon (jurnallar uchun)	2	1 200 000	2 400 000

63	Kitob javoni	2	1 200 000	2 400 000
64	O'qituvchi stoli	5	1 200 000	6 000 000
65	O'qituvchi stuli	5	150 000	750 000
	Faollar zali uchun jihozlar			-
66	Minbar	1	400 000	400 000
67	Ovoz kuchaytirgich	1	3 500 000	3 500 000
68	O'rindiq	30	2 000 000	60 000 000
	Fizika laboratoriya xonasi (STEEM)			-
69	Javon	1	1 200 000	1 200 000
70	Javon (laboratoriya jihozlarini saqlash uchun)	2	1 000 000	2 000 000
71	Javon (laboratoriya xonasi uchun)	2	1 000 000	2 000 000
	Chizmachilik xonasi uchun jihozlar			-
72	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	1	1 200 000	1 200 000
73	O'qituvchi stoli	1	1 200 000	1 200 000
74	O'qituvchi stuli	1	150 000	150 000
75	O'quvchi stoli (1 dona stol, 2 dona stul)	1	1 100 000	1 100 000
	Jami			915 400 000

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-67-48-5-74-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Nurota tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra
g'olib bo'lgan ID: 032329822006 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid
qilinadigan tovar (xizmat)lar
REESTRI**

				20-maktab
t/r	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
5–11 sinf xonalari				
1	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	6	1 200 000	7 200 000
2	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	6	1 300 000	7 800 000
3	Sinf doskasi	6	1 500 000	9 000 000
4	O'qituvchi stoli	6	1 200 000	7 200 000
5	O'qituvchi stuli	6	200 000	1 200 000
6	O'quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul)	54	1 000 000	54 000 000
7	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul)	54	1 000 000	54 000 000
8	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	6	20 000 000	120 000 000
Boshlang'ich ta'lim xonalari uchun jihozlar (1–4-sinf)				
9	Javon (kitoblar, o'quv qurollari va anjomlari uchun)	5	1 200 000	6 000 000
10	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	5	1 300 000	6 500 000
11	Sinf doskasi	5	1 500 000	7 500 000
12	O'qituvchi stoli	5	1 200 000	6 000 000
13	O'qituvchi stuli	5	200 000	1 000 000
14	O'quvchi stoli №3 (1 dona stol, 2 dona stul)	36	1 100 000	39 600 000
15	O'quvchi stoli №4 (1 dona stol, 2 dona stul)	54	1 100 000	59 400 000
16	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	2	20 000 000	40 000 000
“Informatika va axborot-texnologiyalari” xonasi uchun jihozlar:				
17	Kompyuter (personalniy)	24	6 000 000	144 000 000
18	Printer (3B 1)	1	5 000 000	5 000 000
19	Printer rangli	1	6 500 000	6 500 000
20	Proyektor	1	5 000 000	5 000 000
21	Sinf doskasi	1	1 500 000	1 500 000
22	O'qituvchi stuli	1	200 000	200 000
23	O'qituvchi uchun kompyuter stoli	1	1 300 000	1 300 000
24	O'quvchi uchun kompyuter stoli va stuli (1 dona stol, 1 dona stul)	24	1 100 000	26 400 000
25	Ekran dlya proyektora	1	3 000 000	3 000 000
26	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	1	20 000 000	20 000 000
Kuzatuv kameralari				
27	Kuzatuv kameralari	20	1 660 000	33 200 000
Kutubxona				
28	Kafedra stoli (kitob tarqatish uchun)	2	1 200 000	2 400 000

29	Kitoblar uchun javon	10	2 000 000	20 000 000
30	Metallga va yog'ochga ishlov berish o'quv ustaxonasi uchun jihozlar			
31	Dazmol va dazmollash doskasi	1	2 000 000	2 000 000
32	Javon-stellaj (asbob-uskunalar uchun)	1	2 500 000	2 500 000
33	Iskanjali duradgorlik stoli (oyoq osti tagli bilan)	1	13 000 000	13 000 000
34	Tikuv mashinasi (maxsus stoli bilan)	1	5 000 000	5 000 000
35	Tikuv stoli uchun stul	1	400 000	400 000
36	O'qituvchi stoli	1	1 200 000	1 200 000
	Metod xonasi uchun jihozlar			
37	Ish stoli va stuli (O'qituvchi stoli)	2	1 350 000	2 700 000
38	Kitob javoni	2	1 200 000	2 400 000
39	Kreslo (aylanuvchi)	1	3 000 000	3 000 000
40	Ish stoli	1	10 000 000	10 000 000
	Musiqa madaniyati fani xonasi			
41	O'quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul)	12	1 100 000	13 200 000
	Oshxona uchun jihozlar			
42	Muzlatgich	1	5 000 000	5 000 000
43	Oshxona ish stoli	1	5 000 000	5 000 000
44	Plita (elektr yoki gazli)	1	7 500 000	7 500 000
45	Samovar (titan)	1	2 500 000	2 500 000
46	To'rt o'rinli stol	15	2 000 000	30 000 000
	O'qituvchilar xonasi uchun jihozlar			
47	Kitob javoni	2	1 200 000	2 400 000
48	O'qituvchi stoli	5	1 200 000	6 000 000
49	O'qituvchi stuli	5	300 000	1 500 000
	Faollar zali uchun jihozlar			
50	Minbar	1	400 000	400 000
51	Ovoz kuchaytirgich	1	3 500 000	3 500 000
52	O'rindiq	20	3 000 000	60 000 000
	Jami			874 100 000

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-67-48-5-74-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**Nurota tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra
g'olib bo'lgan ID: 032313488006 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid
qilinadigan tovar (xizmat)lar
REESTRI**

«Muruvvat» NEUIU

t/r	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Quyosh panellari (Kvt)	130	10 000 000	1 300 000 000